
TUMAN HOKIMI BOSHCHILIGIDAGI DELEGATSIYA TANTANALI KUTIB OLINDI

Ma'lumki, kecha Rishton tumani hokimi boshchiligidagi delegatsiya Turkiyaning Iznik shahriga jo'nab ketishgandi. Rishton tumani hokimi boshchiligidagi delegatsiya Iznik shahriga yetib borishdi. Bugun delegatsiya a'zolarini rasmiy kutib olish jarayoni o'tkazildi. Rishton tumanidan tashrif buyurgan mehmonlarni Iznik shahri hokimligi delegatsiya a'zolari tantanali ravishda kutib olishdi. Shundan so'ng, faollar o'rtasida kulolchilik hamda savdo-iqtisodiy sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish yuzasidan uchrashuv tashkil etildi. Ushbu uchrashuv davomida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda samarali faoliyat olib borishga, shuningdek xorijda Rishton imidjini ilgari surish va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga kelishib olindi. Shuningdek, delegatsiya a'zolari Iznik shahridagi kulolchilik muzeyida ham bo'lishdi. Safar taassurotlari haqida tezkorlik bilan ma'lumot berib boramiz.

2022-06-23 14:47:36